

## “BOSHLANG’ICH SINFLARDA HARFLARNI O’RGATISH”

*Jizzax Davlat pegagogika universiteti*

*2-oliy boshlang’ich sirtqi ta’lim yo’nalishi III-kurs talabasi*

*Mamanazarova Sadiya Mamayusupovna*

**Annotatsiya:** Bu maqolada boshlang’ich sinflarda ona-tili darslarida harflarni, unli tovushlarni va undoshlarni o’rgatish fikr-mulohaza yuritiladi. Boshlang’ich sinflarining o’quvchilarining to’g’ri yozishi va to’g’ri talaffuz qilishini, bo’g’inlarga to’g’ri ajratishni va bolada to’g’ri hamda chiroyli yozish ko’nikmalarini rivojlantirish ko’nikmalarini rivojlantirish, imloviy savodxonligini oshirish, ularning bilim va ko’nikmalarini yanada rivojlantirish muhim masala hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Bolani to’g’ri o’qishga o’rgatishning bir necha usullari; Bolani qanday qilib to’g’ri o’qishga o’rgatish mumkin; Bolalarga o’qishni o’rganmaguncha harflarni o’rgatmang faqat tovushlar, ya’ni ular faqat talaffuzda “EF” emas balki F yoki “EM” emas balki M va hokazo.

Agar bolangiz o’qishga yoki yozishga unchalik maktabgacha davrida qiziqmasa uni 5-6 daqiqadan ko’proq vaqt o’qishga majburlamang. Agar bolangizda yozishga qiziqish ortsa, ya’ni ko’proq harflarni yozishni xohlayotgan bo’lsa, uni albatta inobatga oling va unga to’liq so’z va kichik matnni ko’rsatishingiz kerak. Bu orqali farzandingiz harflar va qolgan so’zlarni ham tez va oson o’rganadi. Agar farzandingiz harflarni to’liq o’rgangan bo’lsa, u holda unga bo’g’inlar orqali o’rgatish mumkin. Bu o’rgatuvchi mas’ullarga oson kechmaydi. Buning uchun sabr va mehnat, metn va iroda talab etiladi. Yoki “BU-VIM” so’zidan “BUVIM” so’zi deb tushinishi uchun biroz vaqt kerak bo’ladi. Tovush buzilmasligi uchun harflarni to’g’ri talaffuz qiling. Lekin siz bo’g’indagi harflarni yumshoqroq talaffuz qilishingiz mumkin. Harfdan harfga o’tganda ovozingiz pastlab ketmasligi kerak. Shu bilan birga har bir bo’g’inda unli harflar qatnashishini ham bolaga o’rgatib borish zarur. Agar bolaga birdaniga ko’p harflardan

tuzilgan va ko'p bo'g'inli so'zlarni bersangiz, bolaga qiyinchilik tug'diradi va bolaning ishtiyoqi susayishi mumkin. Siz bo'g'inlab so'zlarni o'rgatishni boshlaganingiz ma'qul. Lekin bola shu bo'g'inlarni yaxshi o'rganmaguncha qo'shimchalar ilmang. Agar siz harflar bilano'rganishni boshlasangiz, birinchi navbatda, unilardan boshlang va ulardan bo'g'inlar yasang. Undan keyin esa undosh tovushlarni qo'shing. Qiynalmasdan (bemalol) bo'g'inlar orqali bola o'qishni boshlagandan so'ng, undan o'qiganlaridan nimani tushunganini so'rang. Masalan O-ta so'zida ota so'zi, yoki xo-lam so'zida xolam so'zi chiqishi. Shu bosqichda ayrimlar xatoga yo'l qo'yadi. Bola o'qigan so'zini to'liq talaffuz qilib boshlaganda kattalar ularga butun jumlaning aytib berishini talab qiladi. Aslida, bunday yo'l tutmaslik kerak. Doimo yodingizda bo'lsin, boshlang'ich sinfda bola shunchaki yozilgan yozuvlarni tushunib emas, ko'proq mexanik yodlaydi. Matnni nima haqidaligini bilish uchun biroz vaqt kerak bo'ladi. Va vaqt o'tishi bilan ongli ravishda o'qishi rivojlanib boradi. Bolalarga qat'iyatlik bilan yondashish kerak. Har kuni dars mashg'ulotlarini o'tkazish lozim. Chunki bolada maktabga bo'lgan mas'uliyatni, majburiyatni his qildirish lozim. Agar har kuni mashg'ulot olib bormasangiz, bolada ishtiyoq, qiziqish va chidamlilik susayib boradi. Mashg'ulot qilmaslik uchun har xil bahonalar qidira boshlaydi. Shu bilan birgalikda bolaga 10-20 daqiqalik darsliklar o'rgatishingiz lozim. Agar undan ko'proq vaqt o'rgatmoqchi bo'lsangiz, o'qishga bo'lgan xohishini so'ndirishi mumkin. Hamisha bolani o'rganishi davomida o'qigan matnlari va ma'lumotlar miqdorini nazoratga olib boring. Bolani ortiqcha urintirmang. Mabodo bola o'qishni xohlamasa, majburlamang. Agar darsingiz endi boshlangan bo'lsa, bola o'qishga xohishi yo'qligini aytganida bolaning gapini ma'qullamang. Chunki bola hali bunga o'rganmagan. Va o'rganishdan uzoqlashish uchun turli bahonalar qidiradi. Lekin siz buning uchun u bilan murosa qilib, yechim topishingiz kerak.

**Zaruriy adabiyotlar:**

1. X. Ibragimova. U. Yo'ldoshev. X. Bobomirzayev. Pedagogik psixologiya Toshkent 2007.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" G'.G'. (me'yoriy huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami) Toshkent 2004.
3. Oliy ta'lim me'yoriy-huquqiy va uslubiy hujjatlar to'plami.
4. Psixologiya E. G'oziyev T,: O'qituvchi 1994.
5. Psixologiya B. Karimova.2007.
6. Pedagogika nazariyasi tarixi. Gulchehra Izbullayeva